


Моя профессиональная
карьера



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №9 (том 3)
(декабрь, 2020)



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №9 (том 3) (декабрь,
2020)**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

MUSIQA FANINING HAYOTIMIZDAGI O'RNI Axmadxo'jayeva Gulbahor Muyidinova, Ismoilova Shoxistaxon Islomovna	193
SPORTNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI Usmonova Gulshod Ibrohimovna	202
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕСПЕЦИФИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ВОДОЛАЗОВ К ДЕКОМПРЕССИОННОЙ БОЛЕЗНИ Турсунов Абдумансур Абдуазизович	208
HASHAROT LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI Samandarova Gulnoz Yarashovna	218
ORTIQCHALIK TAMOYILINING O'RGANILISH TARIXI XUSUSIDA Bozorova Gulmira Zayniddinovna	223
HARBIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI Aripov Ramziddin Abdurasul o'g'li, Axmedov Anvar Diyor o'g'li	228
ОРГАНИЗАЦИЯ ПРЕДШКОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ, НЕ ПОСЕЩАЮЩИХ ДОУ, В УСЛОВИЯХ УЧРЕЖДЕНИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ Павленко Наталья Прокофьевна	230
ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ОСОБО ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ НА ПРИМЕРЕ КАВКАЗСКИХ МИНЕРАЛЬНЫХ ВОД Павленко Софья Николаевна	235
“МУНАВВАТ НАQIDA YOZILGAN ENG GO'ZAL QISSA” (CHINGIZ AYTMATOV “JAMILA” QISSASI) Hasanova Marifat Ergashevna	239
AJDODLAR MEROSIDAGI DINIY QADRIYATLAR VA UNING SHAXS TARBIYASIGA TA'SIRI Tolipova Gulbahor Komiljonovna , Qurbonova Gulasal Abdurasulovna	245
ANDIJON VILOYATIDAGI ME'MORIY OBIDALARNING TARIXIY AHAMIYATI Abdurasulova Gulchiroyxon	249
ДЕТАЛЛАРНИ ИЧКИ ЦИЛИНДРИК ЮЗА КАТЛАМИГА ПЛАСТИК ДЕФОРМАЦИЯЛАШ УСУЛИ ЁРДАМИДА ПАРДОЗЛОВЧИ-МУСТАХКАМЛОВЧИ ИШЛОВ БЕРИШДА АСОСИЙ КУЛЛАНИЛАДИГАН АСБОБЛАР Турғунбеков Аҳмадбек Махмудбек ўғли, Жумаев Низомиддин Кенжабой ўғли	252

ФИО автора: Samandarova Gulnoz Yarashovna

Учебное заведение (населенный пункт): Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Название публикации: «HASHAROT LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI»

Annotatsiya: Maqola o'zbek xalqining oltin merosi hisoblanmish paremalarning tuzilishiga ko'ra tasnifiga bag'ishlangan bo'lib, asosan, hasharot lug'aviy ma'noviy guruhi asosida shakllangan maqollar turlarga ajratilgan. Tuzilishiga ko'ra turlarning har biriga mos ravishda hasharot LMG zamirida yuzaga kelgan maqollar misol qilib keltirilgan.

Kalit so'zlar: parema, maqol, matal, sodda va murakkab maqollar, lug'aviy ma'noviy guruh, to'liqsiz gap.

Аннотация: Статья посвящена классификации узбекского народа по структуре парем, считающихся золотым наследием узбекского народа, в основном пословиц, сформированных на основе лексико-духовной группы насекомых. Например, по строению каждого вида даны изделия на основе ЛДГ из насекомых.

Ключевые слова: парема, пословица, пословица, простые и сложные пословицы, лексико-духовная группа, неполное предложение.

Annotation: The article is devoted to the classification of the Uzbek people according to the structure of pairs, considered the golden heritage of the Uzbek people, mainly proverbs formed on the basis of the lexico-spiritual group of insects. For example, according to the structure of each species, products are given based on insect LSG.

Keywords: parema, proverb, proverb, simple and complex proverbs, lexical-spiritual group, incomplete sentence.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish paremalar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrli, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Hikmatli soʻzlar, maqollar – hech bir podsho eʼlon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir.¹⁸

Maqollarni “hayot qomusi”, xalq ogʻzaki ensiklopediyasi, oʻziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini oʻtkirlashtiradi, nutqini ravshan va taʼsirchan qiladi, hayotda toʻgʻri yoʻlni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni toʻgʻri yechishga oʻrgatadi. Shuningdek, maqollar oʻz ijodkori boʻlmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik ogʻzaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

M.Qoshgʻariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini oʻzining “Devon”iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qoʻllanishini arab tilida izohlagan edi. “Devonu lugʻotit turk”da xalq ogʻzaki ijodiga oid 300dan ortiq sheʼriy parchalar, 291ta maqol va matallar keltiriladi.

Maʼlumki, maqollar oʻz tuzilishi hamda semantikasiga ega va asar matniga tayyor til materiali sifatida kiritiladi: oʻz strukturasi koʻra, mustaqil jumla – gapni hosil qiladi, semantikasiga koʻra, mantiqiy hukmni anglatib keladi. Oʻzbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va soʻz birikmalarining asosiy koʻrinishlari, ularning morfologik, sintaktik va baʼzi maʼnoviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan; xalq maqol va matallarining lugʻaviy xususiyatlari adabiy til va dialektlarning leksik doirada oʻrganilgan.

H.Berdiyev va R.Rasulovlar paremalarni ikki xil tasniflashgan¹⁹:

a) strukturasi koʻra;

b) semantik xususiyatiga koʻra.

Shunga koʻra, tuzilishiga koʻra maqollar ikki turga boʻlinadi: sodda va murakkab.

Sodda maqol-matallar birgina predikativ munosabatni ifodalaydi. Ular gap boʻlaklarining ishtirokiga koʻra ham ikki elementidan yetti elementligacha boʻlishi mumkin.

¹⁸ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990. 5-б.

¹⁹ Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1984.

Demak, sodda hikmatlar tuzilishi jihatidan eng kamida ikki elementdan (gap bo'lagidan) tuzilgan bo'ladi va tugallangan fikr ifodalaydi. Har bir maqolda ikkita gap bo'lagi bo'lishi va ular ikki intonatsion markazga bo'linishi shart.

Murakkab maqollar ikki va undan ortiq komponentdan tuzilgan bo'ladi. Bunday maqollar qo'shma gap xarakterida bo'ladi. Murakkab maqol va matallar ikki va to'rt qismli bo'ladi. Undan ortiqlari juda kam uchraydi.

Paremalarni o'rganish jarayonida ular orasida hasharot lug'aviy ma'no guruhida asosida shakllanganlari ham talaygina ekanligining guvohi bo'ldik. Aynan mana shu ma'noviy guruh zahirida shakllangan maqol va matallarni tuzilishiga ko'ra guruhlariga ajratdik.

Sodda maqol - matallarni nechta gap bo'lagidan tashkil topganligiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

a) ikki bo'lakli: *Oltin zanglamas* (Hasharot LMG asosida yuzaga kelgan sodda maqollar orasida ikki gap bo'lagidan tashkil topgan maqollarni uchratmadik);

a) uch bo'lakli: *Sirkadan bit yaxshi; Burgut chivin tutmas;*

v) to'rt bo'lakli: *Mevaning yaxshisini qurt yeydi;*

g) besh bo'lakli: *Mitaning yomoni tegirmondan butun chiqar;*

d) olti bo'lakli: *Bir tomchi suv chumoliga daryo ko'rinar;*

e) yetti va undan ortiq bo'lakli: *Chayon cho'kka tushganda o'z nishini o'ziga sanchar.*

Murakkab maqollar ikki va undan ortiq komponentdan tuzilgan bo'ladi. Bunday maqollar qo'shma gap xarakterida bo'ladi. Murakkab maqol va matallar ikki va to'rt qismli bo'ladi. Undan ortiqlari juda kam uchraydi.

Murakkab maqollarning qismlarini miqdoriga ko'ra ikki qismlidan olti qismligacha turlarga bo'lish mumkin. Ammo hasharot LMGi asosida shakllangan maqollar orasida yuqorida keltirilgan turlarning barchasi uchramaydi. Kuzatuvlar asosida hasharot LMG asosida vujudga kelgan murakkab maqollarni quyidagi quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

a) ikki qismli : *Chumoli birlashsa(1), chayonni yiqar (2);*

b) uch qismli : *Qush ham ketsa (1), keladi(2), O'z elini sevadi(3);*

d) to'rt qismli : *Bol bo'lsa (1) – chivin(2), To'y bo'lsa(3) – yig'in(4);*

Quyidagi ikki turga hasharot LMG zamirida shakllangan maqollarni uchratmadik.

e) besh qismli : *Bog'ni boqsang(1), bog' bo'ladi(2), botmon- dahsar yog' bo'ladi(3), boqimsiz bog' tog' bo'ladi(4), yurak- bag'ring dog' bo'ladi(5);*

f) olti qismli : *Tog'ni baland dema(1), talab qilsang(2), chiqasan(3), yovni kuchli dema(4), g'ayrat qilsang(5), yiqasan(6).*

Maqol matni qisqa, ixcham va lo'nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois ijodkorga qo'l keladi. Maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to'g'riligi isbotlangan holda, qayta- qayta ishlanib vujudga keladi.²⁰

Maqolda har qancha qisqalikka erishilmasin, baribir mazmunni to'liq ifodalash uchun qo'shma gap formalari sodda gap shakliga nisbatan yetakchilik qiladi. Shunday bo'lsa-da, qo'shma gap qismlarini ham ixchamlashtirish zarurati ikkinchi gap komponentini to'liqsiz holda ifoda etishni yoki gap bo'laklarini izohlovchi – izohlanmish ko'rinishidagi markaziy gap bo'laklari ko'rinishida shakllantirish, mazmunni qisqa va lo'nda shaklda ifoda etishni talab qiladi. Masalan, quyidagi hasharot LMG asosida shakllangan maqollarda ikkinchi komponent to'liqsiz gap holida qo'llanadi:

Tirishqoqlikni chumolidan o'rgan,

Dangasalikni qurbaqadan.

Itidan yorug'lik chiqmas,

Bitdan chorig'lik.

Yo poshsho buzar, yo –pashsha.

Kapalak gulni deydi,

Bulbul kuyini.

²⁰ Курбонова С. Хамид Олимжон шеърларида халк мақолларидан фойдаланиш // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. -Фарғона. 2010. 137-6.

Shakar pashshasiz bo`lmas,

Arpa kesaksiz.

Bunday maqollarning o`ziga xos xususiyati shundaki, ular tarkibida qo`llanayotgan noto`liq komponent ba`zan gap boshida ham joylashishi mumkin. Bunday hollarda qo`shma gap komponentlari birdan ortiq bo`lishi kuzatiladi:

It achchig`ini turnadan,

Bit achchig`ini burgadan olar.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, hasharot lug`aviy ma`no gurruhi asosida shakllangan maqollar paremalarning tuzilishiga ko`ra ham sodda, ham murakkab turlariga mos keladigan misollar mavjud. Biroq sodda maqollarning ikki gap bo`lakli turi, shuningdek, murakkab maqollarning esa besh va olti qismli turlari mazkur ma`noviy guruh zahirida vujudga kelgan maqollar orasida uchramadi.

ADABIYOTLAR

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиялогик луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1984.
2. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. -Т.: ФАН, 2006.
3. Қурбонова С. Ҳамид Олимжон шеърларида халқ мақолларидан фойдаланиш // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. -Фарғона. 2010. 137-б.
4. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990. 5-б.
5. Ўзбек халқ мақоллари. II томлик. - Т.: Фан, 1987. Итом.
6. Ўзбек халқ мақоллари. -Т., 1981.